



Cloth names represented in "Sab'ai Sayyor" works of Alisher Navoi

Shakhnoza KHODJANIYAZOVA¹

Tashkent University of Applied Sciences

ARTICLE INFO

Article history:

Received July 2024

Received in revised form

10 August 2024

Accepted 25 August 2024

Available online

25 September 2024

Keywords:

amáma,
kuláh,
hil'at,
libás,
hulla,
savb,
asváb,
mášáb.

ABSTRACT

This article presents a historical, etymological, and lexical-semantic analysis of clothing names in the vocabulary of Alisher Navoi's work Sabai Sayyor, as used in Old Turkic, Old Turkish, and Old Uzbek literary languages. Additionally, the names of clothing items are categorized into internal groups, and cognates of both native and borrowed lexemes—such as Persian + Arabic, Turkish + Arabic, and Arabic + Persian—are identified. Each lexical unit in the synonymous series is examined with its nuances of meaning.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss3/S-pp287-293>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Alisher Navoiyning "Sab'ai Sayyor" asarlarida ifodalangan kiyim-kechak nomlari

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Alisher Navoiyning "Sab'ai Sayyor" asari so'z boyligidagi kiyim-kechak nomlarining qadimgi turkiy til, eski turkiy til va eski o'zbek adabiy tilda qo'llanishda bo'lgan leksemalar tarixiy, etimologik hamda leksik-semantik jihatdan tahlilga tortildi. Shu bilan birga kiyim-kechak nomlari ichki guruhlariga ajratilib, o'z va o'zlashgan qatlam forscha+arabcha, turkcha+arabcha+arabcha, arabcha+forscha leksemalarning ma'nodoshlari ham ochib berildi. Sinonimik qatordagi har bir leksik birlik o'zining ma'no noziklari bilan aks etgan.

Kalit so'zlar:

amáma,
kuláh, hil'at,
libás,
hulla,
savb,
asváb,
mášáb.

¹ Acting Associate Professor, PhD in Philology, Tashkent University of Applied Sciences.

Названия одежды, выраженные в произведении Алишера Навои “Сабъаи Сайяр”

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

amáma,
kuláh,
hil'at,
libás,
hulla,
savb,
asváb,
mášáb.

В данной статье проведен исторический, этимологический и лексико-семантический анализ названий одежды в произведении Алишера Навои «Сабаи сайёр» («Семь планет»), используемых в древнетюркском языке, старотурецком языке и староузбекском литературном языке. Названия предметов одежды были разделены на внутренние группы, а также выявлены родственные связи лексем как собственного происхождения, так и заимствованных, таких как персидско-арабские, турецко-арабские и арабско-персидские. Каждая лексическая единица в синонимическом ряду отражает свои смысловые нюансы.

KIRISH:

Kiyimning paydo bo'lishi haqida so'z borar ekan, jamiyat hayotida kiyim turlarini yuzaga keltirgan turli ijtimoiy omillarni ham hisobga olishga to'g'ri keladi. Har qaysi xalqda, har bir millat yashagan joyning tabiiy sharoitlari, iqlimi, o'simlik va hayvonot olami bilan bog'liq holda, turli mamlakat xalqlarining yonma-yon yashashi o'zaro moddiy va madaniy aloqalarning o'sishi natijasida kiyimlar, ularning bichilishi va hatto nomlari bir-biriga o'tishini ham ko'zda tutish lozim. Kiyim kishining badiiy didini ifodalaydi, madaniy saviyasini belgilaydi, shaxsni xarakterlaydi. Turkiy tillarda maishiy leksika borasida bir qator tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Chunonchi, T.Dadaxonova, I.Otarov, K.Musayev, M.Asomiddinova, L.G'afurova, Sh.Usmonova, G.Shukurova, O.Suxareva, M. Bikjanova, H. Ismoilov, M.Sazonova kabi olimlar tomonidan maishiy leksikaning turli qatlamlari tadqiq qilindi.

Alisher Navoiy asarlarida qo'llangan turli sohalarga oid leksik birliklar qatorida maishiy sohaga oid so'zlarni, xususan, kiyim-kechak leksemalarini tadqiq etish xalqimizning o'sha davrdagi turmush tarzi, madaniyat, urf-odati, an'analari, jamiyat va til tarixi hamda o'zbek tilining lug'at boyligidan boxabar bo'lishda muhim ahamiyat kasb etad. Qolaversa, kiyimlar xalq milliy madaniyatining ko'zgusi sifatida etnogenez, etnik tarix va madaniyat tarixini o'rganishning muhim manbalaridan biri hisoblanib, etnosning boshqa xalqlar bilan o'zaro madaniy, iqtisodiy aloqalari to'g'risida ma'lumot beradi.

Bosh kiyimlarining oltoy xalqlari tarixida o'ziga xos o'rni bo'lgan. Bosh kiyimlari ko'chmanchi aholi o'rtasida quyoshdan, sovuqdan, qordan, yomg'irdan va shamoldan himoyalash vositasi sifatida qo'llanilgan. Ular janglarda qalqon vazifasini o'tagan. Hozirgi o'zbek adabiy tilidagi kiyim-kechakka doir so'zlar uzoq tarixga borib taqaladi. Ular tilning ichki imkoniyatlari va chetdan o'zlashgan so'zlar orqali boyib boradi. Mazkur terminlarning ko'pchiligi hozirgi o'zbek adabiy tili dialektida ko'plab uchraydi.

ASOSIY QISM. “Sab'ai sayyor” matnida qo'llangan kiyim-kechak nomlarini, o'z navbatida, quyidagi ichki guruhlariga ajratgan holda o'rganish maqsadga muvofiq.

a) bosh kiyim nomlari ifodalovchi istilohlar: amáma – “salla, dastor”, kuláh – “bosh kiyim”.

Eski o'zbek adabiy tilida amáma o'zlashmasi (ANAL, I, 100) "salla, dastor" ma'nosida voqelangan. Ushbu leksema dastár, čalma so'zlari bilan sinonimik qatorni hosil qiladi. Dastár arabcha musulmon erkaklar boshiga do'ppi ustidan aylantirib o'rab oladigan, 8-15 gazlik doka (misqoli doka). Salla faqatgina Markaziy Osiyo xalqlariga xos mahalliy bosh kiyimi hisoblanmaydi. U butun Sharqda – Misrdan Hindistonga qadar bo'lgan mamlakatlarda, ayniqsa musulmon mamlakatlarida qadimdan ma'lum bo'lgan (O'KIL, 94-95). Asar matnida faqat amáma o'zlashmasi qo'llanilib, to'rtta o'rinda ishlatilgan:

Bašiya qoydilar amáma dayi,
Anda sandal bila šamáma dayi (554).

Sh.Norboevaning ta'kidlashicha, kuláh so'zi "qalandar, darveshlarning bosh kiyimi" mazmunini bildirs, Sharq mumtoz adiblari tilida, asosan, "so'fiylar bosh kiyimi" ma'nosida ishlatilgan va tasavvuf terminlaridan biriga aylangan. Eski o'zbek adabiy tilida "bosh kiyim" (ANATIL, II, 137; NAL, 320) ma'nosidagi forscha kuláh o'zlashmasi hozirgi o'zbek adabiy tilida "bosh kiyim ya'ni, tepa tomoni ichkalashib chiqqan qalpoq. Asosan, bu bosh kiyimni qalandar va darveshlar kiygan. U qalin, dag'al (ko'pincha, jun) matodan konussimon shaklda ichiga paxta solib tikiladi" (O'TIL, II, 426; O'KIL, 69).

Šerlar allidin ču aldi kuláh,
Šervašlarni ayladi robáh (336).

b) ustki kiyim nomlari anglatuvchi leksemalar: hil'at, libás, hulla, savb, asváb, palás, šál, burqa' – "parda, niqob, hijob" hijáb, mášáb – "jundan to'qilgan kiyim; kambag'al, miskinlar kiyadigan ust kiyim", xirqa h.k.

"Tuhva, in'om qilingan ust kiyim" semasidagi arabcha hil'at istilohi eski o'zbek adabiy tilida 1) ust kiyim: hashamatli kiyim, podsho va amirlar tomonidan mukofot tariqasida beriladigan ust kiyim; 2) yopinchoq, sarmo (ANATIL, III, 395) ma'nolarida ishlatilgan:

Yänä bir xil'ate kiyib zärkäš,
Zärdväš uy ičrä ráhi äsfärkäš (311).

Hozirgi o'zbek adabiy tilida palás o'zlashmasi 1) qo'lda yoki mashinada tayyorlanadigan katta jun sholcha, tuksiz gilam; 2) yerga, polga to'shaladigan buyum (gilam, kigiz, sholcha)larning umumiy nomi (O'TIL, III, 210) ma'nolarida ishlatilmoqda. Eski o'zbek adabiy tilida 1) kigiz, sholcha, gilam; 2) junli kiyim; libos (ANATIL, II, 556) sememalarida, asar matnida o'n bir o'rinda faqat "junli kiyim; libos" ma'nosida ifodalangan:

Egnidin saldi šáhvár libás,
Kiydi orniya šámrañ palás (404).

Hozirgi o'zbek adabiy tilida "yungdan to'qilgan qalin mato, yung gazlama" ma'nosini anglatuvchi šál o'zlashmasi polisemantik so'z bo'lib (O'TIL, IV, 593), Navoiy asarlari tilida "shol, jundan to'qilgan mato, shunday matodan tikilgan kiyim" ma'nosida qo'llangan (ANATIL, III, 536). Bundan ko'rinadiki, ushbu leksema Navoiy davrida nafaol ishlatilib, hozirgi kunga kelib, ma'no kengayish hodisasiga uchragan.

Teñri šukridakim, tili edi lál,
Táat aylar edi kiyib qara šál (427).

Hozirgi o'zbek adabiy tilida "yuzga tutiladiga to'siq, parda" (O'TIL, V, 526) ma'nosidagi arabcha hijáb o'zlashmasi eski o'zbek adabiy tilida "parda, niqob, hijob" ma'nosidagi burqa' leksemasi bilan ma'nodoshlikni hosil qilgan (ANATIL, I, 338):

Qopti hadsiz hijábi pinhániy,

Kopi zulmáníy, azi nuráníy (292).

Olturub čunki burqa' ačti hur,
Boldi el aqlu hušidin mahjur (496).

Kisvat arabcha so'z bo'lib "kiyim, ust-bosh; libos; cho'ntak, kissa; xalta, to'rva; libos, ko'rk; boylik" (ANATIL, II, 118) ma'nolariga ega. Ushbu so'zning turkcha ma'nodoshi kiyim leksemasi XIII-XIV asrlargacha kidim//kezim, kedgü//kezgü, kidyäk – kiyiladigan har bir narsa (DLT, I, 405) shakllarda ishlatilgan; kidyäk "pardan qilingan bosh kiyim" (DLT, I, 371); kizyäk "yomg'irda kiyiladigan yopinchiq" (DLT, I, 371); kējuk "namat va kigizdan qilingan yomg'ir yopinchiq" (DLT, III, 405) semalarida qo'llangan so'zlar bilan o'zakdoshlikni shakllantirgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, Navoiy asarlarida kiy=, kiygülik, kiygür, kiydür so'zlari qo'llangan holda kiyim leksemasi qayd etilmagan. Asar matnida sof turkcha kiyim o'rnida arabcha kisvat o'zlashmasi yetti o'rinda qo'llanganini guvohlik berdi:

Gulrux andaqki sarvi bostániy,
Kisvat aylab hariri rayháníy (480).

Libás leksemasi eski turkiy til obidalarida fonetik o'zgarishga uchramagan holda, "kiyim, ko'ylak" ma'nosida keng qo'llanishda bo'lgan (DTS, 333). Eski o'zbek adabiy tilida 1) kiyim, libos; 2) zeb-ziynat; 3) so'z, ibora; ajoyib ma'noli so'z; 4) sovg'a, tortiq (ANATIL, II, 173) semamalarida qayd etilgan. Mazkur o'zlashma hozirgi kunda ma'no torayishiga uchrab uchta ma'noda ishlatilmoqda (O'TIL, II, 476). Alisher Navoiy davriga kelib, so'zning semantik strukturasi yangi ma'nolar evaziga kengaygan. Mazkur so'z manolib asarlarida to'rt xil ma'noda ishlatilgan. S.S asarida quyidagi ma'nolarda qo'llangan:

1) kiyim, **libos**: Šanba kuni Bahrámniñ muškfám libáslar kiyib, gunbadi muškinga xirám qilib...(393);

2) zeb-ziynat:

Naqši zarkaš libás, de ani,
Bu **libás** ičra šáhidi ma'ni (297).

3) so'z, ibora; ajoyib ma'noli so'z:

Soz **libás**idin etmayin ara,
Xoblar oylakim xazu xará(297).

Eski o'zbek adabiy tilida 1) tomon, taraf; 2) kiyim, libos (ANATIL, III, 17) ma'nolaridagi savb istilohi asar matnida faqat "kiyim, libos" semasida qayd etilgan. Mazkur arabcha savb leksemasi asváb o'zlashmasi bilan sinonimik qatorni yuzaga chiqargan:

Subh savbini gázuri aflák, Mehr sábuni surtubán yudi pák (569).

Ikkisi jismida nekim asváb,
Bor edi sarbasar yašil másháb (452).

"Bezakli kiyim, ziynat libosi; nafis matodan tikilgan kiyim" (ANATIL, IV, 200) semasidagi hulla istilohi S.S matnida tubandagicha:

Hulla uzrā yuziki jilva qilib,
Sabza uzrā guli bihišt açilib (468).

d) kiyim qismini ifodalovchi so'zlar: yaqa, etak, kisvat, kamar, jayb.

Yaqa so'zi "kiyimning bo'yin o'rni uchun ochilgan qismi" (O'TIL, II, 54) eski o'zbek adabiy tilida "yoqa, giribon"; "yoqa, bo'y, sohil" (ANATIL, I, 546) semasiga ega. Ushbu istiloh Mahmud Koshg'ariyning "DLT" asarida jaqa tarzida qayd etilib (237) "yoqa" ma'nosini bildirgan. Yoqa umumturkiy xarakterdagi leksemadir, u qirg'iz, tatar, turk hatto,

mo'g'ul tillarida ham ishlatilgan. V.Radlov lug'atida bu so'z quyidagicha izohlangan: turkcha, tatarcha yaqa, yaqo; qirg'izcha jog'a, jag'a; mo'g'ulcha djaxa "kiyim yoqasi", ozarbayjon tilida yaxa-yaxalq koynak (azer-rus, 215); turkman tilida yaqa (turkm-rus, 809); xakas tilida chag'a . Navoiy yaqa leksemasini "yaqin, bo'y, qirg'oq, chet, chekka" ma'nosida qo'llagan:

Barča yamnák olub, qilib **yaqa** čák,
Lek Jaypur barčadin yamnák (502).

Eski o'zbek adabiy tilida arabcha jayb so'zi "cho'ntak, kissa: yoqa, kiyimning yoqasi: yon, yaqinlik" ma'nolarini ifodalagan (ANATIL, I, 558). Yaqa leksemasi "yon, yaqinlik" semasi jayb so'zi orqali o'zaro ma'nodoshlik qatorini hosil qilgan. Mazkur leksema eski o'zbek adabiy tilida bir nechta ma'no anglatgan, hozirgi kunga kelib ma'no torayishiga uchragan. Asar matnida faqat "cho'ntak, kissa" semasida voqelangan:

Muhraye dayi **jayb**ida erdi,
Čiqarib aniñ ilgigä berdï (471).

ye) mato va mato turlari izohlovchi leksemalar: ipak, atlas, harir, sayfur – "nafis mato", zarbaft – "zardan to'qilgan mato, parand" va h.k.

Eski o'zbek adabiy tilida ipak so'zi "ipak, ipak mato" semasida (ANATIL, II, 46) qo'llangan. Ushbu istiloh hozirgi o'zbek adabiy tilida ma'no kengayishiga uchrab: 1) pilla qurti chiqargan juda ingichka, pishiq, yaltiroq, tovlanib, turadigan muloyim tola va undan yigirilgan ip; 2) shunday iplardan to'qilgan mato, shoyi va undan tikilgan kiyim yoki buyim; 3) ko'chma: muloyim, nozik (O'TIL, II, 223) ma'nolarida ishlatilmoqda. Asar matnida turkcha ipak leksemasi arabcha harir, atlas o'zlashmalari bilan sinonimik qatorni yuzaga chiqargan:

Soz yolin oyla qat' etib čálák
Kim, **ipak**da yugursa gavhari pák (302).
Tarkim, yoq kelib nazir ičrä,
Yašurub hullau harir ičrä (355).

Čarxi atlaski bu riyáh tapib,
Atlasin boyla mijmar uzră yapib (289).

"Ipakdan to'qilgan mato; nafis ipak mato; harir, shoyi" (ANATIL, II, 558) semasidagi forsha parand o'zlashmasi arabcha sayfur (ANATIL, III, 29; NAL, 541) istilohi bilan sinonimlik munosabatiga kirishadi.

Kim, erur bu toquz niqábi baland,
Kim, čekilmiš parand uzră **parand** (329).

Kafan aylab harir ila **sayfur**,
Sepibán ul kafan ara káfur (591).

Forscha zarbaft o'zlashmasi "zardan to'qilgan mato, zarbof, kimxob" (ANATIL, I, 619) ma'nosida ishlatilgan:

Čunki yakšanba urdi mehr alam,
Kiydi zarbáft hulla kok táram (448).

XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Navoiy asarlari tilida kiyim-kechak leksikasi borasida ilmiy izlanishlar olib borish, tilimiz tarixini hamda XV asr oxiri XVI asr boshlarida yashagan xalqning turmush-tarzi, madaniyati haqida tasavvurga ega bo'lish imkonini

beradi. Asar matnida qo'llanilgan ko'pchilik so'zlar hozirgi kunda iste'moldan chiqqan. Asarda so'zlarning ma'no kengayishi va torayishi hodisasi natijasida yuz bergan hodisalar uchraydi. Lug'atning boyishida ichki imkoniyatlari, chunonchi, so'z yasash usullari muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Alisher Navoiy. Sab' ai sayyor. X jildlik, VII jild. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2013. – B. 275-664.
2. Асомиддинова М. Кийим-кечак номлари. – Тошкент: Фан, 1981. – В. 9.
3. Бикжанова М.А. Одежда узбечек Ташкента XIX начала XX в. // Костюм народов Средней Азии. – М., 1979. – С. 133-151.
4. Бикжанова М.А. Мурсак-старинная верхняя одежда узбечек город Ташкента // Сборник посвящённой памяти М.С. Андреева. – Сталинабад, 1960. – С. 47-53.
5. Дадахонова Д. Чеварчилик лексикасига оид баъзи бир сўз-терминлар ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент. 1963. – №1. – Б. 33-36.
6. Зиётова С. “Меҳробдан чаён” асари лексикаси. Монография. –Тошкент. 2023.
7. Махаммadiyah X. Alisher navoiy asarlarida kiyim-kechak nomlari tahlili haqida. Ilmiy axborotnoma. – Samarqand. 2021. № 2.–В.29.
8. Мусаев К. Лексика тюркских языков в сравнительном освещении (Западнокыпчакская группа). – М.: Наука, 1975.
9. Норбоев Ш. Эски ўзбек тилида айрим кийим-кечак номлари хусусида // Ўзбек терминологияси: бугунги ҳолати ва истиқболи. Илмий-назарий анжуман материаллари. – Тошкент. 2017. – Б. 103.
10. Отаров И. Профессиональная лексика карачаево-балкарского языка (на материале названий одежды и обуви): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Баку. 1974.
11. Рассудова Р.Я. Сравнительная характеристика мужской одежды населения Ферганско-Ташкентского региона (XIX-XX вв.) // Традиционная одежда народов Средней Азии и Казахстана. – М., 1979. С.139-156.
12. Сазонова М.В. Женский костюм узбеков Хорезма // Традиционная одежда народов Средней Азии и Казахстана. – М., 1989. – С. 90-106.
13. Сухарева О.А. Древние черты в головных уборах народов Средней Азии // Среднеазиатский этнографический сборник. – М., 1954. – С. 299-353.
14. Сухарева О.А. Опыт анализа покроев традиционной «туникообразной» среднеазиатской одежды в плане их истории и эволюции // Костюм народов Средней Азии... – С. 77-102;
15. Tillaboyeva G. Tilshunoslikda libos nomlari. Scientific Journal Impact Factor. – Tashkent. Volume 3. issue 4. 2022. – P. 508.
16. Усмонова Ш. Олтой тилларида бош кийим номлари // International Journal of Central Asian Studies. Korea, 2008. № 12. – Б. 197.
17. Хо'janiyazova Sh. Alisher Navoiyning manolib asarlari leksikasi. Filol. fan. bo'yicha falsafa dok (PhD). diss... – Toshkent, 2022. –В. 83.
18. Шаниязов К., Исмоилов Х. Этнографические очерки материальной культуры узбеков конца XIX – начала XX в. – Тошкент: Фан, 1981. – С. 67.
19. Шукурова Г. “Девону луғатит турк”да кийим-кечак қисмлари номлари // Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент. 2004. – Б. 43-50;

20. Шукурова Г. “Девону луғотит турк”да устки кийимни ифодаловчи лексемалар парадигмаси // Тилшуносликнинг долзарб масалалари. – Тошкент. 2008. – Б. 16-20;

Shartli qisqartmalar

ANAL – 2013. – 2006. Фозилов Э.И. Алишер Навоий асарлари луғати. – Тошкент.

ANATIL – 1983-1985. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. I-IV. – Тошкент: Фан.

DLT – Маҳмуд Қошғарий. Девону луғотит турк. I-III. – Тошкент: Фан, 1960-1963. Т. I. 1960. – 499 б.; Т. II. 1961. – 427 б.; Т. III. 1963. – 461 б.

NAL – Шамсиев П., Иброҳимов С. Навоий асарлари луғати. – Тошкент. 1972. – 782 б.

NTL – Юсуф Б. Навоий тили луғати. Т. I. Тошкент. 2018. – 493 б.

S.S. – 2013. Alisher Navoiy X jildlik, VII jild. Sab' ai sayyor. – Toshkent.